

raises concerns about job displacement, particularly in low-skill positions. A balanced approach, combining automation with workforce retraining, is needed. Additionally, while big data analytics improves decision-making and customer retention, issues of data privacy must be addressed through strong regulatory frameworks. The environmental impact of automation technologies also calls for adopting energy-efficient, sustainable solutions. Ultimately, the future of automation in tourism will depend on businesses finding a balance between technological progress, ethical considerations, and sustainability goals.

Literature:

1. Buhalis, D., & Law, R. (2018). Progress in Information Technology and Tourism Management: 20 Years on and 10 Years after the Internet—The State of eTourism Research. *Tourism Management*, 29(4), 609-623. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2007.06.002>
2. Ivanov, S., & Webster, C. (2019). **Robots in Tourism and Hospitality: A Research Agenda**. *Annals of Tourism Research*, 74, 440-442. <https://doi.org/10.1016/j.annals.2018.07.005>
3. Murphy, K., Gretzel, U., & Pesonen, J. (2020). Robots in Hospitality and Tourism: A Research Agenda. *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 44, 119-123. <https://doi.org/10.1016/j.jhtm.2020.04.00>
4. Gretzel, U., Li, X., & Fesenmaier, D. R. (2021). Big Data and Analytics in Tourism: Management, Implications, and Research Directions. *Journal of Travel Research*, 60(5), 1044-1062. <https://doi.org/10.1177/0047287520947815>
5. Li, Y., Xu, X., & Tang, H. (2020). The Impact of Big Data Analytics on Business Performance: The Tourism Sector. *Journal of Business Research*, 116, 114-123. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2020.05.022>

INKLYUZIV TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI

Sharipov Bekzod Sherzodovich

Buxoro Davlat Universiteti tayanch doktoranti

E-mail: bekzodsherzodovichsharipov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida xorijiy olimlarning inklyuziv turizm destinatsiyalari infratuzilmasini o'rganishga oid tadqiqot ishlari o'rganildi, Kaliforniya Universiteti (Berkeley) qoshidagi "Ajratish va tegishlilik instituti" (Othering & Belonging Institute) inklyuziv destinatsiyalar borasidagi tadqiqotlari asosida 2024-yilgi dunyo mamlakatlari inklyuzivlik indeksi natijalari tahlil qilindi. Yevropa davlatlarining rivojlangan turizm infratuzilmasini inklyuziv sharoitlar mavjudligi nuqtai nazaridan o'rganish maqsadida 20 ta poytaxt shaharlarning joylashtirish vositalarini booking.com sayti orqali, dunyo bo'ylab turli bozorlar, sanoat, iqtisodiyot sohalari va iste'molchilar xususida ma'lumotlar va tahlillar o'tkazuvchi yetakchi tashkilot "Euromonitor International" 2024-yilda taqdim etgan ma'lumotlarga asosan eng yaxshi turizm destinatsiyalari joylashtirish vositalarining "Agoda" platformasi orqali qiyosiy tahlillari amalga oshirildi.

Kalit so'zlar: destinatsiya, inklyuzivlik, inklyuziv turizm, infratuzilma, inklyuzivlik indeksi, nogironligi bor insonlar

Kirish: Turizm infratuzilmasini jismoniy, aqliy, ruhiy yoki boshqa jihatlar hamda xususiyatlariga ko'ra farqliligi mavjud turizm xizmatlari iste'molchilari uchun moslashtirishda global miqyosda shakllangan boy tajribani o'rganish, rivojlangan mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan loyiha hamda dasturlar shakllantirish bosqichlari, ijrosi va amaliyotini tahlil qilish, turistlar orasida mashhur sanalgan destinatsiyalar inklyuziv infratuzilmasi imkoniyatlari bilan tanishish milliy miqyosda ushbu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy tadqiqotlar hamda amaliyotlarga doir tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim asos bo'ladi.

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning ma'lumotlariga ko'ra [4] so'nggi 30 yil ichida o'ta qashshoqlikda yashayotgan insonlar soni global miqyosda 50 foizga kamaygan va bugungi kunga kelib bu ko'rsatkich 800 milliondan kamroqni tashkil etmoqda. Ammo, dunyo bo'ylab tengsizlik

tobora ortib borayotgani holda, dunyo aholisining 83 foizi yashaydigan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan o'sib, biroq, bu o'sish tengsizlikni kuchaytirib, millionlab odamlarning taraqqiyot istiqbollarini zaiflashtirmoqda. Shu sababli, iqtisodiy o'sish barqaror va inklyuziv shaklda amalga oshmasa o'z-o'zidan qashshoqlik va tengsizlikka qarshi kurashda mazkur omilning o'zigina yetarli bo'lmaydi.

Asosiy qism: Turizm, shuningdek, inklyuziv bandlikni ta'minlash, infratuzilmaviy imkoniyatlar rivojlanib borishida eng asosiy sohalardan biri hisoblanadi, chunki u yuqori malakali va nisbatan kam malaka talab etuvchi ko'plab ish o'rinlarini yaratib, millionlab insonlarni barqaror ish o'rne hamda daromad manbai bilan ta'minlay oladi. Sanab o'tilgan, jihatlar va yana ko'plab omillar mazkur tadqiqot ishining dolzarb ahamiyati miqyosini namoyon etib, uning natijasida ishlab chiqiladigan ijtimoiy, iqtisodiy va asoslangan ilmiy takliflar hamda tavsiyalar inklyuziv turizm destinatsiyalari faoliyati jarayonlarini mustahkamlashda muhim manbaga aylana oladi.

J.Loehr, N.M.U.Dwipayanti, A.Nastiti va B.Powell [3] sanitariya, gigiyena, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash masalalarining turizm destinatsiyalar xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati borasida tadqiqotlar olib borgan. R.M.Gandhi, R.Garg esa nafaqat sanitariya, balki aeroportlar imkoniyatlari, mehmonxonalar, restoranlar, ikki tildagi ko'rsatkich belgilar va jamoat joylarida yaratilgan qulayliklar darajasini Gujarat shtati tajribasi misolida 345 nafar turistlardan olingan so'rovnomalar asosida o'rganishgan.

C.Achillas, D.Aidonis, D.Folinas, I.Kostavelis, N.Tsolakis, D.Triantafyllou, M.Nikolaou va Vasileios Dimou Pieria mintaqasining turistik brendini mustahkamlash va uni inklyuziv destinatsiya sifatida targ'ib qilish maqsadida, Pieria Turizmni rivojlantirish va targ'ib qilish tashkiloti rahbarligi ostida, Xalqaro Gretsiya Universitetining ilmiy va texnik ko'magida ishlab chiqilgan onlayn platformaning asosiy funksiyalari, Gretsiyaning Platamonas shaharchasidagi sinovlar natijasida mazkur hududning inklyuziv rivojlanish salohiyati yuqori ekanligini aniqlagan.

A.Hussain, D.Fisher hamda S.Espiner [2] Pokistonning Gilgit-Baltiston hududida yaratilgan qulayliklar ijtimoiy inklyuziyaga ulkan hissa qo'shganini, ushbu o'zgarishlarning bir qator sabablari mavjud bo'lsada, turizm ayrim muhim ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishida asosiy omil bo'lib xizmat qilganini aniqlagan.

Mazkur tadqiqot ishida ma'lumotlar asosan ikkilamchi manbalardan olindi, xususan, xalqaro va mahalliy olimlarning mavu doirasida o'tkazilgan tadqiqotlariga bag'ishlangan ilmiy maqolalari, xalqaro tashkilotlar, institutlar shuningdek, hisobotlar va statistik ko'rsatkichlar tahlillari amalga oshirildi. Agoda, booking.com, Kaliforniya universiteti (Berkeley) qoshidagi "Ajratish va tegishlilik instituti" (Othering & Belonging Institute), Euromonitor international, Buyuk Britaniyaning "Iglu" mustaqil agentligi ma'lumotlari qiyosiy tahlillari amalga oshirildi. Ekspert baholash metodidan foydalanilgan holda ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kaliforniya Universiteti (Berkeley) qoshidagi "Ajratish va tegishlilik instituti" (Othering & Belonging Institute) tadqiqotlar, siyosat va ustuvor g'oyalarni ilgari surib, istisnolar, cheklanish va tuzilmaviy tengsizlik jarayonlarini – "ajratish" deb ataladigan hodisalarni o'rganadi va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bilan shug'ullanadi. Institutning maqsadi – inklyuziya, adolat, tenglik va yer sayyorasiga g'amxo'rlik asosida qurilgan dunyo yaratish – "tegishlilik" tushunchasini ro'yobga chiqarishdir.

"Tegishlilik" tushunchasi shunchaki jamiyatga qo'shilish yoki iliq qarshi olinish singari mohiyatda ko'ra kengroq ma'nolarni anglatib, bu eng avvalo strategik yondashuv sifatida hozirga qadar davom etib kelayotgan tuzilmaviy va tizimli "ajratish" muammolarini hal qilishga qaratilgan. Bunga turli sohalar va identifikatsion guruhlar o'rtasidagi mavjud holat bo'yicha yuzaga kelgan keng ko'lamdagi tafovutlar misolida ko'rinadigan muammolar kiritiladi. Institut har yili 6 xil mezon bo'yicha mamlakatlar inklyuzivlik indeksi natijalarini e'lon qilib keladi. 2024-yilgi "Inklyuzivlik indeksi" natijalariga ko'ra Yangi Zelandiya 81.21 ball ko'rsatkich bilan birinchi o'rinni egallagan bo'lsa, Portugaliya va Norvegiya 2-3-o'rinlarda qayd etilib, mos ravishda 78.52 hamda 77.43 ballik natija ko'rsatgan (1-jadvalga qarang). Shuningdek, ro'yxatga kiritilgan 25

talikdan Islandiya(77,09), Shvetsiya(76,85), Sloveniya(75,4), Niderlandiya(74,56), Lyuksemburg(74,46), Malta(74,23), Finlandiya(73,74), Avstriya(73,72), Irlandiya(73,68), Janubiy Afrika(73,19), Kanada(70,03), Daniya(72,72), Germaniya(76,62), Belgiya(72,59), Avstraliya(72,57), Chexiya(72,11), Buyuk Britaniya(72), Boliviya(72,7), Estoniya(71), Ekvador(70, 97), Gretsiya(69,93), Kosta Rika(69,7) singari davlatlar o'rin egallagani ma'lum bo'ldi.

1-jadval
2024-yilgi dunyo mamlakatlari inklyuzivlik indeksi natijalari [5]

T/r	Davlatlar	Ko'rsatkich	Irq	Gender	LGBT Q	Din	Nogironlik	Umumiy aholi
1	Yangi Zelandiya	81.21	83	22	1	10	38	30
2	Portugaliya	78.52	1	23	29	11	3	19
3	Norviya	77.43	1	1	4	76	50	3
4	Islandiya	77.09	1	2	7	73	38	5
5	Shvetsiya	76.85	1	3	6	64	55	9
6	Sloveniya	75.4	42	18	39	43	3	20
7	Niderlandiya	74.56	68	11	3	96	46	13
8	Lyuksemburg	74.46	1	17	24	51	55	4
9	Malta	74.23	1	42	19	28	38	28
10	Finlandiya	73.74	1	5	21	113	10	8
11	Avstriya	73.72	40	31	9	88	32	14
12	Irlandiya	73.68	1	52	18	31	55	17
13	Janubiy Afrika	73.19	39	19	23	47	8	73
14	Kanada	70.03	67	51	11	63	32	26
15	Daniya	72.71	1	6	5	109	66	10
16	Germaniya	76.62	1	44	13	95	32	7
17	Belgiya	72.59	43	10	31	114	6	12
18	Avstraliya	72.57	52	37	8	57	71	29
19	Chexiya	72.11	1	76	35	49	15	16
20	Buyuk Britaniya	72	116	20	2	100	62	15
21	Boliviya	71.7	57	24	41	6	17	96
22	Estoniya	71	129	40	33	16	22	1
23	Ekvador	70.97	119	21	36	23	2	61
24	Gretsiya	69.93	64	53	37	68	32	22
25	Kosta Rika	69.7	56	16	27	29	86	54

So'nggi yillarda xalqaro miqyosda inklyuziv destinatsiyalar tajribasi va faoliyatini o'rganish yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot ishlari orasida Lachlan Moor o'tkazgan izlanishlar

e'tiborli hisoblanadi. Olimning tadqiqoti dunyoning 56 ta shahri bo'yicha tahlil va o'rganishlar asosida to'plangan ma'lumotlarning to'rt toifa bo'yicha baholanishi va har bir shahar uchun har 100 000 aholiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichga aylantirilishi orqali amalga oshirilib, ushbu ko'rsatkichlar indekslangan va yakuniy umumiy ball sifatida o'rtacha qiymatlar chiqarilgan. Tadqiqot uchun tanlangan toifalar va manbalar quyidagilarni o'z ichiga oladi [6]:

Tadbirlar – har bir shahardagi mavjud tadbirlar soni “Nogironlar aravachasi uchun mos” filtri orqali saralangan;

Mehmonxona (Nogironlar aravachasi) – har bir shahardagi umumiy mehmonxonalar soni “Nogironlar aravachasi uchun mos” filtri orqali saralangan;

Mehmonxona (Nogironlar uchun imkoniyatlar) – har bir shahardagi umumiy mehmonxonalar soni “Nogironlar uchun imkoniyatlar” filtri orqali saralangan;

Restoranlar – har bir shahardagi restoranlarning umumiy soni “Nogironlar aravachasi uchun mos” filtri orqali saralangan.

Eng qulay va to'siqlarsiz sayohat destinatsiyalari indeksi natijalariga ko'ra, Italiyaning Florensiya va Venetsiya shaharlari mos ravishda 9.91 ballik natija bilan birinchi va ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa, Turkiyaning Antalya shahri 9.40 ball bilan kuchli uchta destinatsiya tarkibiga kirishga muvaffaq bo'ldi. Ro'yxatga kiritilgan destinatsiyalar reytingida so'nggi uch o'rinda Mumbay(Hindiston), Shenjen(Xitoy) hamda Guanjou(Xitoy) qayd etilgan.

Yevropa boshqa soha va tarmoqlar qatori turizm ham inklyuzivlikni rivojlantirish borasidagi juda boy tajribaga ega mintaqalar sanaladi. Jumladan, Avstriya potaxti Vena nogironligi bo'lgan shaxslar uchun shahar infratuzilmasini moslashtirish borasidagi keng miqyosli sa'y-harakatlari natijasida 2025-yilda Yevropa qit'asida “Access City Award”(Qulay shahar) mukofotini qo'lga kiritdi. Mazkur shaharda jamoat joylari, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, jamoat transporti, shuningdek, davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash borasida amalga oshirilgan tashabbuslar natijasida nogironligi bo'lgan shaxslarning hayoti sezilarli darajada yaxshilandi. Shahar ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirgan keng qamrovli yondashuvlari bilan ajralib turadi.

Maxsus loyihalar doirasida shakllantirilgan tuzilmaviy o'zgarishlar, jumladan, moslashtirilgan suzish havzalari, aqlli svetoforlar, inshootlarni barpo etish va bandlik integratsiyasini qo'llab-quvvatlash Venani yanada qulay va inklyuziv shaharga aylantirish amaliyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Shaharning barcha metro bekatlari va 95% dan ortiq avtobus hamda tramvay bekatlari nogironligi bo'lgan shaxslarga moslashtirilgan bo'lib, ular taktill yo'l-yo'riq tizimlari, past polli transport vositalari va multisensorli favqulodda vaziyat tizimlari bilan jihozlangan. Venaning “*Inklyuziv Vena 2030*” strategiyasi nogironligi bo'lgan shaxslar manfaatlariga mas'ul tashkilotlar bilan birglikda muhim qarorlar qabul qilish jarayonida, hamkorlikka asoslangan yondashuvlar orqali shaharning inklyuzivlik imkoniyatlarini ta'minlash tamoyiliga nisbatan kuchli sodiqligini namoyish etadi. Ta'kidash lozimki, Vena ushbu yo'nalishda 2012-yilda g'oliblikka sazovor bo'lgan Zalsburgdan keyingi ikkinchi Avstriya shahriga aylandi.

Ikkinchi o'rinni Nurnberg (Germaniya) shahri egallagan. Nurnberg shahar transporti tizimi, bandlik, sport va dam olish kabi sohalarida Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Nogironlar huquqlari bo'yicha Konvensiyasi” ni amalga oshirish bo'yicha ilg'or va strategik yondashuvlarda inklyuziv sharoitlar yaratishga intiluvchan destinatsiyalar toifasiga kiradi. Shaharning maxsus vakolatlariga ega bo'lgan “Nogironlar kengashi” nogironligi bo'lgan shaxslarni shahar amaliyotidagi muhim tadbir va loyihalarni rejalashtirish jarayoniga faol ravishda jalb etib keladi.

Uchinchi o'rinni Ispaniyaning Kartaxena shahri egallagan. Kartaxena nogironligi bo'lgan shaxslar uchun turizm va madaniy resurslar hamda imkoniyatlardan foydalanishning yorqin namunasi o'laroq, o'zining betakror tajribasi bilan ajralib turadi. Shahar mashhur plyajlarda nogironligi bo'lgan insonlarga suv havzalarida dam olish va hordiq chiqarish bilan bog'liq masalalarda keng imkoniyatlar taqdim etib, ommaviy tadbirlarda muntazam ravishda mazkur segmentga mo'ljallangan alohida, maxsus o'rinlar ajratadi, shuningdek, nogironligi bor turistlarga mo'ljallangan dam olish joylari va bolalar maydonchalari imkoniyatlarini hozirlab qo'ygan.

Yevropa davlatlarining rivojlangan turizm infratuzilmasini inklyuziv sharoitlar mavjudligi nuqtai nazaridan o'rganish maqsadida 20 ta poytaxt shaharlarning joylashtirish vositalarini booking.com sayti orqali tahlil qildik. Bunda har bir shahar bo'yicha ma'lumotlar an'anaviy ravishda bo'lgani singari joylashtirish vositalari qidiruv funksiyasi orqali izlanib, olingan ma'lumotlar asosida jadval shakllantirildi(2-jadvalga qarang).

2-jadval

**Yevropa mamlakatlari mashhur destinatsiyalarining joylashtirish
vositalari inklyuzivligi tahlili [7]**

Davlatlar	Shaharlar	Joylashtirish vositalari soni	Nogironligi bor shaxslar uchun to'liq mos keladi	Brayl belgilar	Taktil belgilar	Audio ko'mak
Italiya	Rim	6177	569	16	17	23
Ispaniya	Madrid	1348	206	21	12	7
Germaniya	Berlin	817	110	17	12	5
Fransiya	Parij	3387	515	79	52	26
B.Britaniya	London	3983	295	33	29	33
Portugaliya	Lissabon	1412	139	8	7	9
Gollandiya	Amsterdam	484	54	5	5	3
Avstriya	Vena	1438	144	11	11	8
Norvegiya	Oslo	239	28	3	2	2
Belgiya	Bryussel	537	75	2	-	1
Daniya	Kopengagen	209	25	2	1	2
Gruziya	Tbilisi	2683	173	10	9	9
Irlandiya	Dublin	288	28	6	5	7
Chexiya	Praga	1122	121	8	5	2
Albaniya	Tirana	1913	205	9	7	7
Andorra	Andorra	132	33	2	-	1
Bolgariya	Sofiya	828	108	4	3	4
Bosniya va Gertsegovina	Saraevo	1216	128	3	2	6
Gretsiya	Afina	2830	152	9	5	4
Latviya	Riga	514	37	1	-	-
Jami		31557	3145	249	184	159

Qidiruv natijalariga ko'ra Rim, London, Parij hamda Afina poytaxt shaharlari joylashtirish vositalari soni bo'yicha yetakchi ekanligi aniqlandi. Kopengagen, Andorra, Dublin va Oslo esa bu borada so'nggi pog'onalarni band etishi ma'lum bo'ldi.

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida Yevropa mamlakatlari shaharlarining joylashtirish vositalari inklyuzivligi yuzasidan olingan natijalar foiz ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi(1.5-jadval). Unga ko'ra, joylashtirish vositalari soni bo'yicha Rim shahri 19,6 % ulush bilan birinchi, London 12,6 % hamda Parij 10,7 % ko'rsatkich bilan ikkinchi hamda uchinchi o'rinda ekanligi aniqlandi. Umumiy ko'rsatkichlar hisobi bo'yicha nogironligi bor shaxslar uchun to'liq mos keladigan joylashtirish vositalari ulushida Rim 18,1 %, Parij 16,4 % va London 9,4 % lik natija qayd etdi(3-jadvalga qarang).

3-jadval

Yevropa mamlakatlari mashhur destinatsiyalarining joylashtirish vositalari inklyuzivligi tahlili(foiz hisobida) [7]

Davlatlar	Shaharlar	Joylashtirish vositalari soni	Nogironligi bor shaxslar uchun to'liq mos keladi	Brayl belgilari	Taktil belgilar	Audio ko'mak
Italiya	Rim	19,6	18,1	6,4	9,2	14,5
Ispaniya	Madrid	4,3	6,6	8,4	6,5	4,4
Germaniya	Berlin	2,6	3,5	6,8	6,5	3,1
Fransiya	Parij	10,7	16,4	31,7	28,3	16,4
B.Britaniya	London	12,6	9,4	13,3	15,8	20,8
Portugaliya	Lissabon	4,5	4,4	3,2	3,8	5,7
Gollandiya	Amsterdam	1,5	1,7	2,0	2,7	1,9
Avstriya	Vena	4,6	4,6	4,4	6,0	5,0
Norvegiya	Oslo	0,8	0,9	1,2	1,1	1,3
Belgiya	Bryussel	1,7	2,4	0,8	0,0	0,6
Daniya	Kopengagen	0,7	0,8	0,8	0,5	1,3
Gruziya	Tbilisi	8,5	5,5	4,0	4,9	5,7
Irlandiya	Dublin	0,9	0,9	2,4	2,7	4,4
Chexiya	Praga	3,6	3,8	3,2	2,7	1,3
Albaniya	Tirana	6,1	6,5	3,6	3,8	4,4
Andorra	Andorra	0,4	1,0	0,8	0,0	0,6
Bolgariya	Sofiya	2,6	3,4	1,6	1,6	2,5
Bosniya va Gertsegovina	Saraevo	3,9	4,1	1,2	1,1	3,8
Gretsiya	Afina	9,0	4,8	3,6	2,7	2,5
Latviya	Riga	1,6	1,2	0,4	0,0	0,0
Foizda / %		100	9,96	0,78	0,58	0,50

Keyingi bosqichda joylashtirish vositalari inklyuzivligi umumiy ulushda emas balki, har bir mamlakat uchun individual tartibda hisoblab chiqdik. Misol uchun Rimda mavjud 6177 ta joylashtirish vositalari 100 % hisobida olib, uning ulushida nogironligi bor shaxslar uchun to'liq mos keladigan joylashtirish vositalari ulushi 9,21 %, brayl belgilari mavjud joylashtirish vositalari 0,25 %, taktil belgilari mavjud joylashtirish vositalari 0,27 %, audio ko'mak imkoniyatlari mavjud joylashtirish vositalari ulushi esa 0,37 % ekanligi ma'lum bo'ldi. Shu tartibda barcha shaharlar bo'yicha olingan natijalar hisoblanib, foiz ko'rinishiga keltirildi, fikrimizcha, bu orqali ularning inklyuzivlik imkoniyatlari haqida yanada aniqroq tasavvur hosil bo'lishi imkoniyati yaratiladi(4-jadvalga qarang).

4-jadval

**Yevropa mamlakatlari mashhur destinatsiyalarining joylashtirish
vositalari inklyuzivligi tahlili(foiz hisobida) [7]**

Davlatlar	Shaharlar	Joylashtirish vositalari soni	Nogironligi bor shaxslar uchun to'liq mos keladi(%)	Brayl belgilar i (%)	Taktil belgilar r (%)	Audio ko'ma k (%)
Italiya	Rim	6177	9,21	0,25	0,27	0,37
Ispaniya	Madrid	1348	15,3	1,6	0,9	0,5
Germaniya	Berlin	817	13,5	2,1	1,5	0,6
Fransiya	Parij	3387	15,21	2,33	1,54	0,77
B.Britaniya	London	3983	7,41	0,83	0,73	0,83
Portugaliya	Lissabon	1412	9,84	0,57	0,50	0,64
Gollandiya	Amsterdam	484	11,16	1,03	1,03	0,62
Avstriya	Vena	1438	10,01	0,76	0,76	0,56
Norvegiya	Oslo	239	11,72	1,26	0,84	0,84
Belgiya	Bryussel	537	13,97	0,37	0,00	0,19
Daniya	Kopengagen	209	11,96	0,96	0,48	0,96
Gruziya	Tbilisi	2683	6,45	0,37	0,34	0,34
Irlandiya	Dublin	288	9,72	2,08	1,74	2,43
Chexiya	Praga	1122	10,78	0,71	0,45	0,18
Albaniya	Tirana	1913	10,72	0,47	0,37	0,37
Andorra	Andorra	132	25,00	1,52	0,00	0,76
Bolgariya	Sofiya	828	13,04	0,48	0,36	0,48
Bosniya va Gertsegovina	Saraevo	1216	10,53	0,25	0,16	0,49
Gretsiya	Afina	2830	5,37	0,32	0,18	0,14
Latviya	Riga	514	7,20	0,19	0,00	0,00

Italiya poytaxti Rim joylashtirish vositalarida inklyuziv segmentga mos qulayliklarni yaratish bo'yicha yetakchi mamlakatlardan sanalsada, turizm obyektlaridagi mavjud shart-sharoitlar zamonaviy talablarga unchalik mos kelmaydi. Biroq, bunda hukumat yoki destinatsiyalar boshqaruv tashkilotlarini ayblash qiyin, boisi mamlakat turizm obyektlarining aksariyati uzoq davrlarga taaluqliligi hamda ularga shikast yetkazishdan tiyilish singari omillarni e'tiborsiz qoldirish mumkin emas.

Yevropaning eng yirik shaharlardan biri hisoblanuvchi Ispaniya potaxti Madrid nogironligi bor sayohatchilar uchun infratuzilmaviy imkoniyatlarni imkon qadar qulaylashtirishga intiladi. Ko'chalarining aksariyatida hamda metro stansiyalarining 50 % dan ortig'i nogironligi bor insonlar segmentiga moslashtirilgan. Bundan tashqari, Madridning barcha asosiy sayyohlik jihatidan diqqatga sazovor sanaluvchi nuqtalari nogironligi bo'lgan insonlar uchun qulay imkoniyatlarga ega, jumladan, Museo Nacional del Prado yoki Buen Retiro bog'i har doim mazkur segmentni qabul qilishga tayyor.

Xulosa: Inklyuziv turizm destinatsiyalari infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishning ilg'or xorij tajribalarini o'rganish natijasida quyidagi takliflarni ilgari suramiz hamda xulosalarga keldik:

1. 2024-yilgi dunyo mamlakatlari inklyuzivlik indeksi natijalariga ko'ra Yangi Zelandiya 81.21 ball ko'rsatkich bilan birinchi o'rinni egallagan bo'lsa, Portugaliya va Norvegiya 2-3-o'rinlarda qayd etilib, mos ravishda 78.52 hamda 77.43 ballik natija ko'rsatgan.

2. Yevropa davlatlarining rivojlangan turizm infratuzilmasini inklyuziv sharoitlar mavjudligi nuqtai nazaridan o'rganish maqsadida 20 ta poytaxt shaharlarning joylashtirish vositalarini booking.com sayti orqali tahlil qildik.

3. Turizm maqsadlarida sayohatga chiquvchi nogironligi bor insonlarning 25 foizi sayohat davomida turli xildagi to'siqlar va murakkabliklarga duch kelishi aniqlangan bo'lib, oddiy sayohatchilarda bu ko'rsatkich 10 foizni tashkil etadi.

4. Euromonitor international tadqiqotlari natijasida taqdim etilgan eng yaxshi destinatsiyalarning joylashtirish vositalari inklyuzivligini aniqladik. Buning uchun 7000 dan ortiq xodimlar faoliyat yurituvchi, 7 ta asosiy bozorni qamrab olgan, 4,5 milliondan ziyod joylashtirish vositalari haqida ma'lumotlar bazasini shakllantirgan hamda 39 tilda foydalanish imkoniyati taqdim etilgan Agoda platformasi ma'lumotlaridan foydalandik. 2024-yilning eng yaxshi destinatsiyalari tahlili amalga oshirilib, Istanbul, London, Gongkong, Makka, Antaliya, Dubay, Makao, Parij hamda Kuala Lumpur destinatsiyalari joylashtirish vositalari inklyuzivligi borasidagi natijalarni qo'lga kiritdik.

5. Yevropa mamlakatlari tajribasidan kelib chiqib, destinatsiyalar inklyuzivligini ta'minlashda turizm xizmatlariga ixtisoslashgan obyektlar va ularga yondosh hududlarda qulay infratuzilmani shakllantirishning o'zigina yetarli emasligini, asosiy maqsad birinchi navbatda, mahalliy aholining hayot darajasini ko'tarish, taklif tizimi shakllantirilayotgan hudud imkoniyatlarini ijtimoiy zaif qatlamga hamda turli xususiyat va omillarga ko'ra farqli bo'lgan insonlarga moslashtirish, to'siqlarsiz, universal muhit yaratish zarur ekanligini aniqladik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Achillas C. et al. (2002). Digital platform for strengthening accessibility of tourist destinations in the Pieria Region //Olympus International Conference on Supply Chains. – Cham : Springer Nature Switzerland,. – C. 99-106.

2. Hussain A., Fisher D., Espiner S. (2017). Transport infrastructure and social inclusion: A case study of tourism in the region of Gilgit-Baltistan. Social Inclusion (ISSN: 2183–2803) Volume 5, Issue 4, Pages 196–208.

3. Loehr J. et al. (2021). Safer destinations, healthier staff and happier tourists: Opportunities for inclusive water, sanitation and hygiene in tourism //Tourism management perspectives. 40. – C. 100883.

4. UNWTO. (2018). Globafit&idt. Global Report on Inclusive Tourism Destinations Model and success stories. Pages 6-110.

5. <https://belonging.berkeley.edu/inclusiveness-index/index-results>

6. <https://www.comparethemarket.com.au/travel-insurance/features/accessible-travel-destinations-2024/>

7. <https://www.booking.com> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

XORAZM VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINING BUGUNGI HOLATI

Ibragimova Mohigul Tangribergan qizi –

O'XIA magistranti

e-mail: mohigulibragimovaa29@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatidagi ziyorat turizmining bugungi holati tahlil qilinadi. Maqolada viloyatdagi diniy obidalar va ziyoratgohlarning salohiyati, ziyorat turizmining rivojlanishiga qaratilgan so'nggi yillardagi ishlanmalar, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va mavjud muammolar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, ziyorat turizmining iqtisodiy va madaniy ahamiyati, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va mahalliy aholining turizm sohasiga jalb qilinishi zarurati muhokama qilinadi. Maqola Xorazm viloyatida